

MA'NAVIYATGA OID AJRATILGAN BO'LAKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI (ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI MISOLIDA)

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti fakultet 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar : f.f.f.d. F.H Yuldashev

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi ma'naviyatga oid ajratilgan bo'laklarning uslubiy xususiyatlarini o'rgandik. Ajratilgan bo'laklardagi ma'naviyatga oid so'zlar shaxslarning xarakter-xususiyatlari ochib berildi. "Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasidagi guruhlar kengroq talqin qilindi.*

Annotation. *In this article, we have studied the methodological features of separate passages related to spirituality in the novel "Father" by Ulugbek Hamdam. The words related to spirituality in the separate sections reveal the character traits of individuals. Groups in the lexical-semantic category "spirituality" were interpreted more widely.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, lingvoma'naviyatshunoslik, ajratilgan bo'laklar, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi, Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani.*

Key words: *Spirituality, linguo-spirituality, separated fragments, lexical-semantic category of "spirituality", novel "Father" by Ulugbek Hamdam.*

KIRISH. XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib dunyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy manzarasida o'ziga xos o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda O'zbekiston ham mustaqillikni qo'lga kiritib, tanlagan yo'lidan olg'a bormoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiy hayot bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham tub islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. "Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanilishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi"¹. Globalashuv sharoitida tilshunoslikning ham o'z o'rganish obyektiga millat va shaxs ma'naviyati nuqtayi nazaridan yondashuvini yanada dolzarblashtirmoqda. Milliy tillarda aks etadigan ma'naviy "tomir"larning lisoniy asoslarini aniqlash, til va ma'naviyat aloqalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, shiddat bilan o'zgarib borayotgan davrda ma'naviyat masalasi milliy o'zligini saqlab qolishga intilayotgan har bir xalq uchun hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida shakllanib borayotgan lingvoma'naviyatshunoslikning vazifalariga til va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatni o'rganish va tavsiflash kiradi. Bundan maqsad esa ulg'ayib kelayotgan yosh avlod

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim"dagi nutqidan.

ma'naviy yetuk bo'lishini ta'minlashdan iborat. Ma'naviyatga oid birliklarni o'rganishda va ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda aynan badiiy asarlardan foydalanamiz. Chunki asarlarda xalqimizning qon-qoniga singib ketgan milliylik, urf-odat, an'analar yoritiladi. Bu uchala tushunchada xalqimizning ma'naviyat va marifati mujassamlashgan.

Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonning ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman²

ASOSIY QISM. Ulug'bek Hamdamning “Ota” romanida ma'naviyatga ajratilgan bo'laklarning bir qanchasini tahlil qilamiz. Ushbu asarni yozuvchi mahorat bilan yozgan. Romandagi har bir o'quvchining qalbini larzaga soladi. Ayniqsa, undagi ajratilgan bo'laklarda ko'z ilg'amas ma'nolar mavjud. Buni faqat qalb orqali his qilish mumkin. Avvalo, ajratilgan bo'laklar nima ekanligini bilib olamiz. O'zidan oldingi bo'lakning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, to'ldirib, aniqlashtirib kelgan bo'lak ajratilgan izoh bo'lak deyiladi. “Ota” romanida ma'naviyatga oid ajratilgan bo'laklarni tahlil qilib ko'ramiz. *Inson degan o'zi shunday bo'lishi – yaqinlarini yaxshi ko'rishi, ular uchun har sinovga tayyor turishi kerak! (71-b)* “Yaxshi ko'rmoq” leksemasi matnda turli xil ma'nolarda kelishi mumkin. Ushbu gapda oila a'zolarini yaxshi ko'rmoq qadrlamoq ma'nolarida kelgan. Bu leksema “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “mehr” makro guruhiga kiradi. *U o'zining so'nggi qo'rg'oni – iymonini saqlab qolish uchun ham qizini chavaqlab tashladi... (164-b)* Ushbu gapni tahlil qiladigan bo'lsak, avvalo, biz *iymon* so'ziga diqqat qilishimiz zarur. Iymon – Allohga ishonch, e'tiqod.³ Ushbu gapda ham *iymon* so'zi shu ma'noda kelgan. Asarda ota diniga bo'lgan iymon-e'tiqodini saqlab qolish uchun har qanday ishga tayyor. Iymon so'zi “e'tiqod” umumiy semali birliklar guruhiga kiradi. *Yonimda yurishgan edi, bir oila – bir tan-u bir jon edik, biroq men ularni tushunmadim, tushunolmadim. (205-b)* Ushbu ibora orqali ahillik, inoqlik semalari ifodalanyapti. Ahillik, inoqlik semalari ham “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasiga kiradi. . *Mayli, o'zga birovga tushuntirolmasdir, lekin insonning o'zini o'zi tushunib yetishi – tavnaga kelishi uning hayotidagi eng katta mo'jizadir!.. (205-b)* Tavnaga kelish leksemasi “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “e'tiqod” umumiy semali birliklar guruhiga kiradi.

² Islom Karimov . “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008

³ “O'zbek tilining izohli lug'ati”

XULOSA. Ma'naviyat bevosita inson bilan bog'liq tushunchadir. Bundan ko'rinadiki, "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasining shakllanishida inson va uning ruhiy olam muhim. Ma'naviyat shunday kategoriyalardan biriki, insonning ongi, dunyoqarashi o'sib borgani sari uning qamrovi va ko'lami ham rivojlanib boradi. Ma'naviyat insonni komillik sari yetaklovchi yo'ldir. Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi ajratilgan bo'laklarda ma'naviyatga oid so'zlarning qo'llanilish uslubiyatini o'rgandik desak, mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim"dagi nutqidan.
2. Islom Karimov . "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati"
4. Ulug'bek Hamdam. "Ota". –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020